

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

2018 yil yanvar-sentyabr oylarid

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Joriy davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1307,5 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,8 %ni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi jalb etilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri keldi – 839,2 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 64,2%i, korxona va aholining o'z mablag'lari hisobidan esa 468,3 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 35,8 %ini o'zlashtirildi.

Respublika byudjetining joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar jami hajmida 9,2 %ni, jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida esa 14,3 %ni tashkil etdi.



Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan:


Tijorat banklari kreditlari
va boshqa qarz
mablag'lari:
471,5 mln. so'm

Korxona mablag'lari:
384,4 mln. so'm

To'g'ridan-to'g'ri,
boshqa xorijiy
investitsiyalar:
44,0 mln. so'm

Aholi mablag'lari:
393,3 mln. so'm


Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashganlik darajasidan kelib chiqib tahlil qiladigan bo'lsak, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 323,7 mln. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 24,8%ini hamda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 983,8 mln so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 75,2% i o'zlashtirildi.



Markazlashgan moliyalashtirish manbalarining eng katta qismi – 37,0%ini Respublika byudjeti hisobiga to`g`ri keldi. Shuningdek, Davlat maqsadli jamg`armalari 31,7%ni va O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga 29,1 to`g`ri keldi.

Suv tarmoqlarini yaxshilash bo'yicha yirik investitsiya loyihalari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Respublika byudjeti hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari asosan iqtisodiyotning qishloq xo`jaligida amalga oshirilmoqda. Bunday investitsiya loyihalariga: kollektorlarni tizimli ta`mirlash-tiklash ishlari va meliorativ tik quduqlarni rekonstruksiya qilish.



Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz hisobidan o`zlashirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Joriy davrda ushbu moliyalashtirish manbai hisobidan investitsiyalar jami markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 47,9%ini tashkil etdi. Bunda quyidagi yirik investitsiya loyihalarining ulushi katta: farmatsevtika flakonlar va boshqa oyna shishalarni ishlab chiqarish, qattiq va suyuq shaklda dori vositalarini ishlab chiqarish va boshqa investitsiya loyihalari.


Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 39,1%ini korxona va tashkilotlarning o`z mablag`lari tashkil etadi. Bu korxona va tashkilotlarning asosiy qismi o`z faoliyatlarini kengaytirish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadidagi investitsiyalarini avvalambor o`z mablag`lari hisobidan amalga oshirishlari bilan bog`liq.

Shuningdek, yo`naltirilgan investitsiyalar ham boshqa moliyalashtirish manbalari bilan korxona va tashkilotlarning o`z mablag`lari ishtirokida amalga oshirilmoqda.


***Moliyalashtirish manbalari bo `yicha asosiy
kapitalga investitsiyalar***

	Mlrd. so`m	O'sish sur'ati foizda %	Jamiga nisbatan foizda %
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	1307,5	112,8	100
Republika byudjeti	119,7	43,0	9,2
Davlat maqsadli jamg'armalari	102,7	105,1	7,8
Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	7,0	91,2	0,5
O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	94,3	3355,2	7,2
Korhona mablag'lari	384,4	110,3	29,4
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	471,5	174,7	36,1
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	44,0	69,1	3,4
Aholi mablag'i	83,9	96,1	6,4

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o’zlashtirilgan hajmi bo'yicha hudular kesimida Guliston shahar va Sirdaryo tumani yuqori o'sish suratlari qayd etilib, mos ravishda ularning viloyatdagi ulushi oshib bormoqda.




Hudular kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish surati Shirin va Yangier shahlari, Oqoltin, Mirzaobod, Sayxunobod, Sirdaryo va Xovos tumanlarida kuzatildi.

Sardoba tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar o'tgan yilga nisbatan keskin tushishi – 93,7 %. Bu albatta o'tgan yillarda ushbu hududda yirik investitsiya loyihasi ishga tushirilganligi bilan izohlanadi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 689,6 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashinalar, asbob-uskunalarga investitsiyalar 590,7 mlrd.so'm va boshqa xarajatlarga 27,1 mlrd. so'm o'zlashtirildi. Qurilish-montaj ishlariga investitsiyalar joriy yil boshidan biroz ko'payish kuzatildi. Bu iqtisodiyotda, ayniqsa asosiy qishloq xo'jaligi yaratilayotgan yirik quvvatlariga investitsiyalar bilan bog'liq.

Hududlar kesimida texnologik tarkibi



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi


Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqorida Ishlab chiqarish sanoatiga qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 402,2 mlrd.so'mni va jami investitsiyalardagi ulushi 30,8%ni tashkil etdi.



Ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan faoliyat turi quyidagi: boshqa nometall mineral maxsulotlari ishlab chiqarish sanoati 190,4 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 14,6%).

Turar joy qurilishiga 216,7 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 16,6%i o'zlashtirilgan.

Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihamlar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.




Joriy davrda 138,3 mlrd soʻm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,6%i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

Bu Guliston shahar, Oqoltin, Boyovut va Xovos tumanlarida yuqori investitsiyalar hajmiga toʼgʼri keldi.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihasi: Sirdaryo viloyatining Guliston shahar, Boyovut, Oqoltin, Sardoba va Xovos tumanlarini ichimlik suvi bilan taʼminlash tizimini yaxshilash.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar



Obyektlarni ishga tushirish

Ijtimoiy sohada joriy davrda umumiy maydoni 64,5 ming kv.m bo'lgan 607 ta turar joy ob'yekti qurilib ishga tushirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 31,4 ming kv.m. bo'lgan 388 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 20,8 ming kv.m 274 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi.


Sog'lijni saqlash sohasiga oid obyektlar bo'yicha 500 qatnovga mo'ljallangan ambulator poliklinika ishga tushirildi.

Ta'lim sohasida 580 o'quvchi o'rini umumta'lim mакtablar rekonstruksiya qilindi.




Turar joy qurilishida jami Viloyatda ishga tushirilgan turar joylardagi ulushi bo'yicha Guliston shahar, Guliston, Sayhunobod, Sirdaryo tumanlari yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Yangier, Shirin shahar, Mirzaobod va Oqoltin tumanilarida eng kam turar joylar ishga tushirildi.

Ishga tushirilgan turar joylar



Turar joylarning asosan qishloq joylarda qurilayotganligi namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan yakka tartibdagi uy joylar qurilishi bo'yicha olib borilayotgan davlat dasturlarining bajarilishi hamda aholining o'zi uchun yakka tartibda qurayotgan uylari bilan bog'liq.





*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi*

Nashr uchun mas'ul:

G.Muxraximova

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-27